

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

NAZAR ESHONQUL IJODIDA AYOLLAR OBRAZLARINING TASNIFLANISHI

Oripova Nurafshon

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, katta ilmiy xodim (PhD).

e-mail: nurafshonoripova@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-3841-540X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqul ijodida ayol obrazining badiiy-estetik, ijtimoiy-ma'naviy va psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Yozuvchining hikoya va qissalarida yaratilgan xotin-qizlar obrazlari yosh, ijtimoiy-ma'naviy mavqe, ruhiy holat va xarakter xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi. Shuningdek, ayol obrazlarining milliy mentalitet, urf-odatlar, axloqiy qadriyatlar hamda o'zbek ayoliga xos sadoqat, fidoyilik, matonat va e'tiqod bilan bog'liqligi ochib beriladi. Maqolada "Urush odamlari", "Momoqo'shiq", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Bepoyon osmon" va "Qultoy" kabi asarlardagi ayol personajlari misolida ularning fojeali taqdirleri, ijtimoiy muhit bilan munosabatlari hamda ichki kechinmalari tahlil qilinadi. Nazar Eshonqulning ayol obrazlarini yaratishda bevosita va bilvosita tavsif usullaridan foydalanishi, shuningdek, badiiy makon, interyer, detal va personajlararo munosabatlarning qahramon xarakterini ochib berishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Nazar Eshonqul, o'zbek nasri, ayol obrazi, xotin-qizlar obrazi, badiiy-estetik ideal, milliylik, psixologizm, xarakter, fojeali taqdir, ijtimoiy-ma'naviy mavqe, interyer, badiiy detal.

КЛАССИФИКАЦИЯ ЖЕНСКИХ ОБРАЗОВ В ТВОРЧЕСТВЕ НАЗАРА ЭШОНКУЛА

Орипова Нурафшон

Государственный музей литературы имени Алишера Навои Академии наук Республики Узбекистан, старший научный сотрудник (PhD).

Аннотация.

В статье анализируются художественно-эстетические, социально-духовные и психологические особенности женских образов в творчестве Назара Эшонкула — одного из видных представителей современной узбекской прозы. Женские образы, созданные в рассказах и повестях писателя, классифицируются по возрасту, социально-духовному положению, психологическому состоянию и особенностям характера. Раскрывается также связь женских образов с национальным менталитетом, обычаями, нравственными ценностями и такими характерными для узбекской женщины качествами, как верность, самоотверженность, стойкость и вера. На примере женских персонажей произведений «Люди войны», «Момокушик», «Невозможно поймать ветер», «Бескрайнее небо» и «Култой» анализируются их трагические судьбы, взаимоотношения с социальной средой и внутренние переживания. Освещается использование Назаром Эшонкулом прямых и косвенных способов характеристики при создании женских образов, а также роль художественного пространства, интерьера, деталей и взаимоотношений между персонажами в раскрытии характера героев.

Ключевые слова: Назар Эшонкул, узбекская проза, женский образ, образы женщин, художественно-эстетический идеал, национальная специфика, психологизм, характер, трагическая судьба, социально-духовное положение, интерьер, художественная деталь.

CLASSIFICATION OF FEMALE CHARACTERS IN NAZAR ESHONQUL'S WORKS

Oripova Nurafshon

Alisher Navoi State Museum of Literature, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Senior Researcher (PhD).

Abstract.

This article analyzes the artistic-aesthetic, socio-spiritual, and psychological characteristics of female characters in the works of Nazar Eshonqul, one of the prominent representatives of contemporary Uzbek prose. The female characters portrayed in the writer's short stories and novellas are classified according to age, socio-spiritual status, psychological state, and character traits. The article also explores the relationship between these female characters and national mentality, customs, moral values, and such qualities

traditionally associated with Uzbek women as loyalty, self-sacrifice, perseverance, and faith. Drawing on female characters in such works as *Urush odamlari*, *Momoqo'shiq*, *Shamolni tutib bo'lmaydi*, *Bepoyon osmon*, and *Qultoy*, the study examines their tragic destinies, relationships with the social environment, and inner experiences. It also highlights Nazar Eshonqul's use of direct and indirect characterization in portraying women, as well as the role of artistic space, interior setting, literary detail, and interpersonal relationships in revealing the characters' personalities.

Keywords: Nazar Eshonqul, Uzbek prose, female character, female characters, artistic-aesthetic ideal, national identity, psychologism, character, tragic fate, socio-spiritual status, interior, literary detail.

Kirish. Zamonaviy o'zbek nasrida ayol obrazi alohida badiiy-estetik va ijtimoiy-ma'naviy yuklamalarga ega murakkab toifa sifatida namoyon bo'ladi. Ayolning jamiyatdagi va oiladagi o'rni, uning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit va maishiy muammolar bag'ridagi kurashi bugungi adabiyotda katta dolzarblik kasb etmoqda. Nazar Eshonqul ijodidagi xotin-qizlar obrazi ham ana shunday murakkab va ko'p qirrali tasvirlar ichida alohida o'rin egallaydi.

Adib nasrida ayollar obrazini tasnif hamda tahlil qilish, muallifning obraz yaratishda personajlarning o'zgalar, shuningdek, ziddiyatli vaziyatlarda raqiblari bilan munosabatga kirishish holatini ilmiy asoslash, ayollar obrazida adibning ijodkor ruhiyati bilan uyg'unligini va badiiy voqelik sodir bo'lgan makon hamda zamondagi detal va ashyolar (interiyer)ning personaj shaxsiyatini ochib berishga xizmat qilganligini ko'rish mumkin. Adibning adabiy-estetik qarashlarini Feruza Burxonova o'rgangan. Olima o'z tadqiqotida adibning estetik idealini tahlil etgan. Olima Bayna momo obrazining jahoniy poetik darajadagi obraz maqomiga ko'tarilganligini ta'kidlaydi, Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asari qahramoni Robekaga mengzaydi.

MAQSAD VA VAZIFA

Izlanuvchi "N. Eshonqul adabiy-estetik qarashlarining asosiy yo'nalishlaridan yana birini milliylik, odamiylik, ijtimoiy gumanizm kabi g'oyalar tashkil etadi" [1] deya mushohada yuritadi. Adibning ijodida yorqin aks etgan Muazzam, Bayna momo kabi obrazlarni tahlil etgan. Yozuvchining biografiyasidagi eng ta'sirchan voqealar uning "Urush odamlari", "Momoqo'shiq", "Shamolni tutib bo'lmaydi" asarlarida aks etganini aniqlagan. Adibning hikoya va qissalaridagi ayollar obrazi, bir tomondan, milliy ruh va an'analar bilan chambarchas bog'liq holda yuritilsa, boshqa tomondan, zamonaviy tafakkur, ichki ozodlikka intilish, shaxsiy drama va ijtimoiy beqarorlik kabi illatlar bag'rida shakllanadi. Ayollar nafaqat maishiy hayotda, balki ma'naviy jarayonlarda ham faol, fidokor va ayni paytda ezgulik hamda muruvvat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Nazar Eshonqulning asarlariga xos bo'lgan milliylikni saqlash, millatimizga xos bo'lgan g'urur va insoniylik tamoyillari qalamga olinganligi hamda bunda ayollar obrazining psixologik negizi muhim ekanligi ta'kidlangan. Adib asarlaridagi ayollar obrazi yoritilishi haqida: "Ayol zotiga ehtiromini, ayol zotining mahobatini, sadoqati va e'tiqodini, agar tashbeh lozim bo'lsa, aytish mumkinki, yozuvchi o'z asarlari orqali ulug'vor bir kuyga solib, bor ovozi bilan qo'shiq qilib aytadi. "Momoqo'shiq"dagi Muazzam ham Bayna momo ("Shamolni tutib bo'lmaydi"), Biydi momo ("Urush odamlari") kabi o'z e'tiqodiga sodiq qolgan obraz. Aynan o'sha kuch-qudrati, teran fikri, ulug'vor ma'naviy olami bilan o'quvchini to'liqlantirib yuboradi" [2] deya xulosa berilgan. "Momoqo'shiq" qissasi tahlili so'ngida asar yozuvchi estetik ideali yuksalib borish yo'lidagi, o'ziga xos falsafiy uslubining mukammallashish jarayonidagi bir bosqich ekanligini ta'kidlab o'tgan. Xulosa o'rnida: "Momoqo'shiq"da ko'tarilgan muammolar bir qarashda jo'ndek tuyulsa-da, aslida xalqning xalq bo'lishi, ajdodlardan davom etib kelayotgan qadriyatlarining yo'qolishi, inqirozga yuz burishi mana shunday oddiylikdan boshlanishini uqtiruvchi ogohlik belgisidir. "Momoqo'shiq"da fazilatlar ko'p.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Eng muhimi, yozuvchining estetik ideali yuksalib borish yo'lidagi, o'ziga xos falsafiy uslubining mukammallashish jarayonidagi bir bosqich hamdir" [3] deyiladi. Adabiyotshunoslikda xotin-qizlar obrazi (ya'ni ayol qahramonlar) turlicha tasniflanadi. Chunki har bir davr, janr va yozuvchi ayol obraziga o'ziga xos yondashadi. Adib asarlaridagi ayollar obrazini bir necha jihatlardan tasniflash mumkin. Masalan, asarlardagi ayollar obrazi yoshi jihatidan tasniflansa, ularni besh guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Masalan: qizaloqlar (farzand yoki go'dak ma'nosida), qizlar (turmushga chiqmagan, bo'y yetib qolgan), kelinchaklar (turmushga chiqqan va farzandli bo'lgunga qadar), juvon (turmushga chiqqan ayol, rafiq), momolar obrazi.

1.1-jadval

Adib asarlaridagi ayollar obrazining yosh jihatidan tasnifi

№	Tasniflanish	Ta'rif	Obraz namunasi (asarlar misolida)
1	Qizaloqlar	Farzand yoki go'dak; hali voyaga yetmagan kichik yoshli qizlar	Hojar (Normatning qizi)
2	Qizlar	Turmushga chiqmagan, bo'y yetgan, balog'at yoshidagi qizlar	Talaba qizlar (Bayna momoning uyiga kelgan)
3	Kelinchaklar	Turmushga chiqqan, ammo hali farzand ko'rmagan yosh ayollar	Muslim, Sora, Hanifa, Oyto'ldi.
4	Juvonlar	Turmushga chiqqan, odatda farzandli bo'lgan	Anzirat, Biydi momoning katta kelini, Muazzam.
5	Momolar	Keksaygan, tajribali, odatda	Bayna momo, Biydi momo,

(keksalar)	nabirali, hurmatga ega ayollar obrazi	Kudurat kampir, Bo'ston momo, Norbi kampir.
------------	--	--

Avvalgi tadqiqotlardan ma'lumki, adib asarlaridagi momo obrazi uning biografiyasi bilan, yanada aniqroq aytilsa, buvisi Masil momo hayotiy prototipi bilan bog'liq hisoblanadi. Adib Urush odamlari qissasida ham buvisining ismini bir qahramonga beradi. Kichik qahramon bo'lib ko'rinsada, kuniga o'g'li yarayotganligi aytib o'tiladigan juvon – Masil kurash tushgan polvonning onasi ekani ochiqdanadi. Adib asarlaridagi ayollar obrazini biz ijtimoiy-ma'naviy mavqeyi yuzasidan ham tasniflashimiz mumkin. Bunday tasniflarda, odatda, qahramonlar to'rt guruhga ajraladi.

1. **Oddiy xalq vakillari – mehnatkash ayollar.** Nazar Eshonqul asarlaridagi asosiy va epizodik qahramonlarning aksariyatini bu guruhga kiritishimiz mumkin. Masalan, Bayna momo, Biydi momo, Anzirat, Hanifa, Sora va boshqalar. Adibning aksariyat asar qahramonlari oddiy xalq vakillari. Ularning, ayniqsa, ayollarning biror mansabda ekanligi deyarli uchramaydigan holat.

2. **Zodagon ayollar** – podsholarning xotinlari, malikalar shular jumlasidan. Nazar Eshonqul asarlarida podsholik tuzumi haqida so'z yuritilmaganligi bois biz bu tasnifga qahramon kirita olmaymiz.

3. **Ma'rifatli, ziyoli ayollar.** Biz bu guruhga "Momoqo'shiq" qissasidagi shoira ayol epizodini, ziyolilik (oliy ma'lumotlilik) jihatidan Muazzamni, "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida tilga olingan talaba qizlar epizodini olishimiz mumkin bo'ladi. Tadqiqot obyekti hisoblangan hikoya va qissalarda boshqa ayollarning ziyolilik darajasi haqida aytarli ma'lumot berilmagan.

4. **Ezilgan, jabrlangan ayollar** – ijtimoiy adolatsizlik qurboni bo'lgan ayollar. "Bepoyon osmon" hikoyasi qahramoni Oyto'ldi, "Qultoy" hikoyasi qahramoni Arzihol, "Urush odamlari" qissasida Normat polvonning ayoli Anzirat va qizi Hojar. Ko'plab tadqiqotlarda Anzirat farzandi sog'ligi va hayotini saqlab qolish uchun xiyonat ko'chasiga kirganligi ta'kidlanadi. Lekin bu tahlillar haqiqatdan yiroq. Chunki Anzirat Mirzaqulning g'araz niyatini bilmasdi. Bilganida, balki o'sha xilvat joyga qadam ham bosmasdi. Mirzaqulning unga qarindoshchiligi borligi uchun ham unga qaysidir ma'noda ishongandi, suyangandi. Albatta, biz Anziratning qilgan gunohini oqlash fikridan yiroqmiz. Zero, adibning o'zi ham uning keyinchalik nafsining tiyiqsiz istaklariga yengilishini tabiiy ravishda tasvirlaydi. Lekin jamiyatdagi insonlar tomonidan unga qilingan zulm asarda juda ayancli tasvirlangan.

Adib hikoya va qissalaridagi ayol qahramonlarni ruhiy holati hamda xarakterlariga ko'ra ham guruhlariga ajratish mumkin.

1. **Sadoqatli, vafodor ayollar:** Oyto'ldi, Muazzam, Bayna momo, Biydi momo, Bayna momoning katta kelini. Bu ayollar obrazi adib asarlarida yaxshi xulqli va mustahkam axloqli yorning tipik vakilasi sifatida yoritilgan.

2. **Jasur, ijtimoiy hayotda faol ayollar:** "Urush odamlari"dagi Biydi momo (asarda berilgan ta'rifga ko'ra, butun urug'ga amma hisoblanardi, to'ylarda ham bakavullik, ham kayvonilik qilib yurardi), "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasidagi Bayna momo (turmush o'rtog'i va o'g'li o'ldirilmasdan avval uning hovlisi polvonvachchalar yig'iladigan joy bo'lgani asarda ta'kidlanadi), "Bepoyon osmon" hikoyasidagi Oyto'ldi (butun qishloq bolalariga onalik qiladi, kim kasal bo'lsa darrov qaynatmalar, damlamalar tayyorlab ko'rgani borib keladi), "Qultoy" hikoyasidagi Arzihol (qarigani sari kuchga to'lishi va qo'shni hovlilarda ham kuymalanib yurishi tilga olinadi).

3. **Fidokor ayollar** – Arzihol va Oyto'ldi obrazlarini misol keltirish mumkin. Oyto'ldi tug'mas degan aybni bo'yniga olib, umrini o'z turmush o'rtog'iga fido qiladi. Arzihol qilgan gunohi uchun bir umr jamiyat tomonidan kechirilmagan, o'z farzandi tomonidan tan olinmay, quldek hayot kechiradi. Adib Arzihol, Oyto'ldi obrazlari orqali yaqin o'tmishdagi xotin-qizlarning jamiyatda, oilada huquqsizligini ochib bergan.

4. **Fojeali taqdir egalari** – Anzirat eri tomonidan otib o'ldiriladi (gunohiga jazo olgach, yanglishlik tufayli), Arzihol esa butun umr xo'rlikda hayot kechirib, farzandini bir bora "bolam" deya atay olmasdan hayotdan ko'z yumadi, Oyto'ldi bir umr "qisir", "tug'mas" degan sifatlariga chidab, turmush o'rtog'i oriyatini saqlash uchun farzand ko'rish ne'matidan bebahra o'tadi va olamdan ko'z yumadi, Bayna momo ayol boshi bilan qotillikka qo'l uradi, buni hammadan to'olimigacha yigirma uch yil davomida sir tutadi, turmush o'rtog'i va yakka-yu yagona o'g'li o'ldirilgach, umrining ellik yilini yolg'izlikda, xotiralari bilan kechiradi. Bir umr o'ziga o'lim tilab yashaydi. Uning aynan Laylat-ul qadr kechasida vafot etishi ham shunga ishora edi.

Adib asarlaridagi ayollar obrazi G'arb kitobxonlari uchun g'ayrioddiy tuyulishi ham mumkin. Bu yaratilgan obrazlarning milliy mentalitet bilan chuqur sug'orilganligidan dalolat. Yozuvchi nasridagi asarlarda ayollar obrazi erkaklar bilan teng turib, birgalikda rizqini topayotgan, mehnatkash insonlar sifatida ham tasvirlanadi. Ular mehnatdan baxt topmagandi, topa olmagandi. Lekin hech isyon qilishmagan, e'tiqodidan, axloqiy chegaralaridan og'ishmagandi. Yana bir e'tiborli jihat Nazar Eshonqul asarlarida tilga olingan ayollar obrazi mafkuralashmagan va jamiyatda faol bo'lmagan insonlardan tashkil topadi. Ayollarning ijtimoiylashuvi ko'p davrlarda ularning axloqiga ta'sir etganini ko'rish mumkin. Ularni faqatgina bolalari deb yashagan, ularning zoriqmasligi uchun bor kuch-quvvati, g'ayrati bilan mehnat qilgan oddiy qishloq ayoli sifatida emas, balki Alloh tomonidan nozil qilingan kitobda belgilangan oliy vazifasini ado qilayotgan ayollar obrazi deb hisoblash mumkin. Nazar Eshonqul asarlaridagi ayollar obrazi ikki turda tavsiflanganligini ko'rish mumkin:

1. To'g'ridan to'g'ri (bevosita) tavsif;
2. qahramon xarakterini personajlar orqali (bilvosita) ochish.

Masalan, adibning "Urush odamlari" qissasida Biydi momoga nisbatan muallif tomonidan "Ertasiga Biydi momo ikki o'g'liga aza ochdi. Janoza o'qitib, qora kiydi. Shundan keyin u qishloqda boshqa ishlarga aralashmay qo'ydi" [4] deya ta'rif berilgan. Qahramon xarakterini personajlar orqali (bilvosita) ochishga Biydi momoga Alyar chol tomonidan keltirilgan ta'rifni misol qilib olish mumkin. "Biydi qurg'ur cho'kib qoldi-da! Eh, shunday kampir ikki oyda cho'pday bo'lib qoldiya! Xuddi tutday to'kildi [5]".

XULOSA

Adibning ayollar obrazini tasvirlashida bir necha mulohazakor jihatlar ham bor. Nazar Eshonqul asarlarida ayollar ruhiyati jonli tasvirlanganligiga qaramasdan biror qahramon tilidan alla kuylanmagan, vaholanki adib asarlaridagi aksariyat qahramonlar onalar edi. Yana bir e'tiborni jalb qiladigan jihat adibning asarlarida qo'llanilgan ayollar ismlariga birorta erkalash, kichraytirish (xon, oy, jon kabi) qo'shimchalarining qo'shilmaganligidir. Masalan: Oyto'ldi, Biydi, Bayna, Masil, Sora, Hanifa, Arzihol, Anzirat, Hojar, Tursunoy, Muslim, Muazzam, Bibi Oyna va hokazolar. Bu ismlarda, avvalo, hududga xoslikni sezish mumkin. Yuqorida tilga olingan ismlar, odatda, Qashqadaryo viloyatida, aksariyat voha hududlarida keng tarqalgan. Adib asarlaridagi aksariyat ayollar obrazlari o'zbek xalqiga xos milliylikni o'zida mujassamlashtirgan. Ular momolarining sifatlarini yelkalarida ko'tarib kelayotgan ayollar timsoli. Adib asarlarining hayotiyiligini ta'minlagan yana bir jihat asarlardagi qahramonlar dardini kimnikidir deb emas, aynan o'z dardi deb his etishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Burxonova F. A. *Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy parallelizm (Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam ijodi misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi*. – Toshkent, 2019. – 165 b. – B. 68. – URL: <https://oak.uz/page/8?page=2782>
2. Xoldorov D. *Ijod mohiyati – uslub xosiyati*. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 160 b. – B. 54. – URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/navoiy_va_pushkin_toplam_2024_oxirgi.pdf
3. Xoldorov D. *Ijod mohiyati – uslub xosiyati*. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 160 b. – B. 55. – URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/navoiy_va_pushkin_toplam_2024_oxirgi.pdf
4. Eshonqul N. *Saylanma. II qism: roman va qissalar*. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 576 b. – ISBN 978-9943-7578-1-3. – B. 404. – URL: <https://hilolnashr.uz/nashriyotlar-uz/akademnashr-uz/saylanma-2>
5. Eshonqul N. *Saylanma. II qism: roman va qissalar*. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 576 b. – ISBN 978-9943-7578-1-3. – B. 404. – URL: <https://hilolnashr.uz/nashriyotlar-uz/akademnashr-uz/saylanma-2>